

# Uzbekistan Airways eng yaxshi agentlarni taqdirladi

**2021 22 Oktabr**

2021-yilning 20-oktabr kuni «Uzbekistan Airways» AJ O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 2021-yilning birinchi yarim yilligi sotuv natijalariga ko'ra eng yaxshi agentlarga mukofotlarni topshirdi. Marosim aviakompaniyaning bosh ofisida boshqaruv kengashi va Uzbekistan Airways Sales agentlari ishtirokida o'tkazildi.

«Bugungi kunda aviakompaniyaning asosiy maqsadi – yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, havo transporti aviachiptalari savdosi hajmining oshishi, shuningdek ushbu tizimda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, onlayn xizmatlar ko'lamini kengaytirish», – dedi Boshqaruv Raisining savdo va turizm bo'yicha o'rinbosari Shuhrat Xudayqulov.

**alt** image not found or type unknown

**alt** image not found or type unknown

Tadbir doirasida joriy yilning birinchi yarim yilligi yakunlariga ko'ra sezilarli savdo hajmiga erishgan, ayni paytda yo'lovchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatgan 60 dan ortiq agentlarga mukofotlar topshirildi.

«Uzbekistan Airways» AJ 2021-yil birinchi yarim yilligida aviaqatnovlar aviachiptalari sotuvlari bo'yicha agentlarning sermahsul faoliyati tufayli, agentlik tarmog'ining umumiy sotuv hajmidagi qismi 800 milliard so'mdan oshdi.

**alt** image not found or type unknown

**alt** image not found or type unknown

Aviatashuvlar sotuvlari bo'yicha agentlarini sotish hajmida yuqori natijalarga erishishni rag'batlantirish va O'zbekistonda agentlik tarmog'ini yanada rivojlantirish maqsadida taklif etilgan kompaniyalar rahbarlari faxriy yorliq va maxsus sertifikatlar bilan taqdirlandi.

**alt** image not found or type unknown

**alt** image not found or type unknown

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)